

RAQAMLASHTIRILGAN JAMIYATDA INSON MUAMMOSI VA YECHIMLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-462-467>

Baykabilova Parizod Amanbayevna

Toshkent davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi.

G'aybullayeva Muxlisa Hayitboy qizi

Toshkent davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamlashtirilgan jamiyatda inson duch kelayotgan dolzarb muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan. Texnologik taraqqiyot natijasida yuzaga kelayotgan shaxsiy hayot daxlsizligi, ijtimoiy ajralish, ishsizlik va yolg'on axborotlar kabi xavf-xatarlar atroflicha yoritilgan. Muallif ushbu muammolarga qarshi kurashishda raqamli savodxonlik, zamonaviy ta'lim, axloqiy qadriyatlarni asrash hamda texnologiyalardan ongli foydalanish kabi yechimlarni ilgari suradi. Maqola texnologik rivojlanish jarayonida inson omilining ahamiyatini ta'kidlab, raqamli dunyoda ham barkamol jamiyat qurish g'oyasiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Kiberxavfsizlik siyosatini, dezinformatsiya, Emotsional aloqa, Mediasavodxonlik, reskilling, SI texnologiyalari.

HUMAN PROBLEMS AND SOLUTIONS IN A DIGITALIZED SOCIETY

Abstract. This article analyzes the current problems faced by people in a digitalized society and their solutions. The threats arising from technological progress, such as privacy, social isolation, unemployment, and false information, are covered in detail. The author puts forward solutions to combat these problems, such as digital literacy, modern education, preservation of moral values, and the conscious use of technology. The article emphasizes the importance of the human factor in the process of technological development and serves the idea of building a harmonious society in the digital world.

Keywords: Cybersecurity policy, disinformation, Emotional communication, Media literacy, reskilling, SI technologies.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В статье анализируются текущие проблемы, с которыми сталкиваются люди в цифровом обществе, и пути их решения. Подробно

рассматриваются угрозы, возникающие в результате технического прогресса, такие как конфиденциальность, социальная изоляция, безработица и ложная информация. Автор предлагает решения для борьбы с этими проблемами, такие как цифровая грамотность, современное образование, сохранение моральных ценностей и осознанное использование технологий. В статье подчеркивается важность человеческого фактора в процессе технологического развития и служит идее построения гармоничного общества в цифровом мире.

Ключевые слова: Политика кибербезопасности, дезинформация, эмоциональная коммуникация, медиаграмотность, переподготовка, технологии СИ.

Kirish. XXI asr – bu raqamlashtirish, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt asridir. Bugungi kunda insoniyat hayotining barcha sohalari – ta’lim, sog’liqni saqlash, iqtisodiyot, madaniyat va hatto shaxsiy hayot ham raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog’liq bo’lib bormoqda. Albatta, bu jarayon insoniyat taraqqiyotiga katta ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Biroq, bu o’zgarishlar inson ruhiyati, ijtimoiy munosabatlari va hayot tarziga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Ushbu maqolada raqamlashtirilgan jamiyatda inson oldida paydo bo’layotgan muammolar va ularga taklif qilinayotgan yechimlar chuqur tahlil qilinadi.¹

Raqamli texnologiyalar natijasida inson shaxsiy hayotining nazorat ostida qolishi, real muloqotning kamayishi, ish o’rinlarining avtomatlashtirilishi, yolg’on va manipulyativ axborotlarning ko’payishi kabi masalalar tobora dolzarb tus olmoqda. Shu sababli, raqamlashtirish jarayonining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish, inson omilini himoya qilish va texnologiyalar bilan uyg’un hayot tarzini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur maqola raqamlashtirilgan jamiyatda insoniyat duch kelayotgan asosiy muammolarni yoritadi va ularning yechimlari bo’yicha takliflarni ilgari suradi. Maqsad – texnologik taraqqiyot sharoitida insoniylik, ijtimoiy barqarorlik va ruhiy sog’lomlikni saqlab qolish yo’llarini izlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Raqamlashtirish jamiyat taraqqiyotining asosiy bosqichlaridan biri bo’lib bormoqda. Bundan 2,5 ming yil avval Pifagor hamma narsani raqam bilan ifodalash mumkinligini aytgan. Undan tashqari Pifagor har 10 ming yilda raqamlil (ya’ni tom manoda) takrorlanish sodir bo’lishini ham takidlab o’tgan. Raqamlashtirish jarayoni bugungi kunda ko’plab olimlar, mutaxassislar va

¹ : <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137>

amaliyotchi tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Jahon miqyosida Manuel Kastels, Shoshana Zuboff, Klaus Schwab kabi olimlarning asarlari raqamli jamiyatning shakllanishi, insonning yangi ijtimoiy rolini aniqlash va raqamli nazorat masalalarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, Shoshana Zuboffning “Kuzatuv kapitalizmi” (The Age of Surveillance Capitalism) nomli asari shaxsiy hayot daxlsizligi muammosiga chuqur tahliliy yondashuvni taklif qiladi.

Mahalliy mualliflar orasida raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayotga ta'siri, ijtimoiy tafakkurda yuzaga kelayotgan o'zgarishlar haqida yozilgan maqola va tadqiqotlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli taraqqiyot bo'yicha strategik qarorlari, “Elektron hukumat”, “Raqamli O'zbekiston – 2030” kabi dasturlar mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarga asos bo'layapti.²

Biroq mavjud adabiyotlarda ko'proq texnologik yoki iqtisodiy yondashuv ustun bo'lib, inson ruhiyati, shaxsiyatiga ta'sir qiluvchi omillar yetarli darajada ochib berilmagan. Shu bois, ushbu maqolada mavjud ilmiy ishlanmalarga tayanilgan holda, raqamlashtirish jarayonining insoniy qiyofaga ta'siri ijtimoiy-psixologik va axloqiy nuqtai nazardan ham tahlil qilinadi.

Pifagorning gaplaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkin, ya'ni hozirgi sivilizatsiyamiz oldingi sivilizatsiyaning takrorlanish bosqichi ham bo'lishi mumkindir. Biz hammamiz yaxshi bilamizki hozirgi davr texnika inqilobi davri hisoblanadi va biz aynan mana shu davrda yashab kelmoqdamiz. Ko'pchilik insonlar hozirgi davrda nima bo'layotganini va qayerga qarab ketayotganini o'zi tushunmay qolayabdi. Ya'ni bunga asosiy sabab biz o'zimiz yaxshi tushunmaydigan dunyoni yaratayapmiz. Biz yaratayotgan texnologiya insonlarga qaraganda juda tez rivojlanmoqda. Hayot tobora murakkablashmoqda, vaqt esa tez o'tib bormoqda inson qabul qiladigan ma'lumotlar esa tobora ortib bormoqda. Natijada insoniyat bunday katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qila olmaydi va o'zini instiktiv ravishda undan himoya qiladi. Inson miyasi berilayotgan ma'lumotlarning faqat bir qismini ongida saqlab qoladi. Ong cheksiz ravishda kelayotgan katta oqimdagi ma'lumotlarni qayta ishlaolmaydi va o'zlashtira olmaydi. Ko'pchilik to'satdan smartfonini yo'qotganida, o'zida vahima va qo'rquvni boshidan kechiradi, chunki barcha ma'lumotlar unda bo'ladi. Hamma joyda avtorizatsiya talab qilinadi. Ammo barcha parollar to'plamini eslab qolishning iloji yo'q. Shuningdek, maqola yozishda insonparvarlik yondashuvi asosiy metodologik tamoyil sifatida tanlangan. Bu yondashuv orqali texnologik

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi.
– <https://lex.uz/docs/5088666>

rivojlanish jarayonida inson qadriyatlari, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarning ahamiyatiga urg‘u berilgan.

MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Odamlar ko‘p duch keladigan muammolardan biri oziq-ovqat do‘konlaridan kerakli mahsulotni sotib olayotganda, bonuslarni hisoblash uchun kartani taqdim etishni unutib qo‘yishadi va sotuvchining oldiga qaytib borib kartani berganida sotuvchi bonuslarni hisoblab bera olmasligini, bunga asosiy sabab esa dastur ruxsat bermasligini takidlab o‘tadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, biz birovlar yaratgan algoritmgaga va dasturiy taminotga bo‘ysunib yashashga majburmiz.

Bundan raqamlashtirishning asosiy 5 ta muammosi kelib chiqadi.

1. Shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi
2. Ijtimoiy ajralish va yolg‘izlik
3. Mehnat bozori va ishsizlik muammosi
4. Axborotning haddan tashqari ko‘pligi va dezinformatsiya
5. Inson va robot o‘rtasidagi munosabatlar muammosi

1. Raqamlashtirish jarayonida shaxsiy ma’lumotlar turli platformalar orqali to‘planib, saqlanmoqda. Har bir foydalanuvchi internetda qoldirayotgan izlari (geolokatsiya, qidiruv tarixlari, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi) korporatsiyalar yoki boshqa manfaatdor tomonlar uchun qiymatli axborotga aylanmoqda. Bu esa maxfiylik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda.

Yechim: Davlat miqyosida kiberxavfsizlik siyosatini kuchaytirish, foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qiluvchi qonunlarni ishlab chiqish va eng muhimi, raqamli savodxonlikni ommalashtirish zarur.

2. Ijtimoiy tarmoqlar son jihatidan insonlar o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirayotgan bo‘lsada, sifat jihatidan ularni sayozlashtirmoqda. Bevosita muloqotning kamayishi, virtual dunyoga haddan ortiq bog‘lanish, real hayotdagi ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirmoqda. Bu esa ruhiy holatga salbiy ta’sir ko‘rsatib, yolg‘izlik va depressiyaga olib kelishi mumkin.

Yechim: Odamlar o‘rtasidagi jonli muloqot madaniyatini saqlab qolish, raqamli hayot va real hayot o‘rtasida sog‘lom muvozanatni yaratish, madaniy va sport tadbirlarini ommalashtirish orqali ijtimoiy faollikni oshirish mumkin.

3. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish natijasida bir qator kasblar yo‘qolish xavfi ostida qolmoqda. Ayniqsa, oddiy, takrorlanuvchi mehnatga asoslangan kasblar avtomatlashtirilmoqda. Bu esa yangi ijtimoiy tengsizlik manbai bo‘lishi mumkin.

Yechim: Ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish, inson kapitalini rivojlantirishga, zamonaviy kasb-hunarlariga yo‘naltirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish lozim. Qayta o‘qitish (reskilling) va kasbiy malakani oshirish (upskilling) dasturlari keng joriy etilishi kerak.³

4. Bugungi raqamli makonda yolg‘on xabarlar, manipulyativ axborot va noto‘g‘ri ma’lumotlar keng tarqalmoqda. Foydalanuvchilar katta hajmdagi axborot oqimi ichida haqiqatni yolg‘ondan ajratishda qiynalmoqda.

Yechim: Mediasavodxonlik darajasini oshirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ishonchli axborot manbalarini tanlay olish madaniyatini shakllantirish zarur. Bundan tashqari, axborot tarqatuvchi platformalar o‘z kontentini nazorat qilish uchun mas’uliyatni oshirishi lozim.

5. Emotsional aloqa va insoniylikning yo‘qolishi. SI asosidagi robotlar inson bilan muloqot qila olsada, ularda haqiqiy emotsiya va empatiya yo‘q. Bu esa insonning ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi. Ish o‘rinlarining yo‘qolishi. Robotlar va SI texnologiyalari ko‘plab sohalarda inson o‘rnini egallamoqda. Bu esa ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik va noroziliklarni kuchaytiradi.

Yechim: SI uchun axloqiy va huquqiy me’yorlar ishlab chiqish. Sun’iy intellektning imkoniyatlari va chegaralari aniq belgilanishi, ularning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi global qonunlar va etika kodekslari yaratilishi kerak. Inson–robot hamkorligini emas, to‘liq almashtirishni oldini olish. Texnologiyalar inson faoliyatini to‘ldiruvchi vosita bo‘lishi kerak, uning o‘rnini to‘liq egallovchi emas. Bu balans mehnat bozori va ijtimoiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Aholi, ayniqsa yosh avlodni SI bilan ongli muloqot qilish, uning imkoniyat va cheklovlarini anglashga o‘rgatish zarur. Robot va SI tizimlari inson qadriyatlariga mos keladigan, axloqiy normalarga asoslangan algoritmlar bilan yaratilishi lozim.

XULOSA

Raqamlashtirish jarayoni – bu inkor etib bo‘lmaydigan global hodisa. U inson hayotini yengillashtiruvchi qulayliklar yaratish bilan birga, yangi ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun texnologiyalardan oqilona foydalanish, shaxsiy va ijtimoiy ongini rivojlantirish, ta’lim va tarbiyani zamonaviy ehtiyojlar asosida takomillashtirish talab etiladi. Raqamlashtirilgan jamiyatda inson qadriyati, uning fikri va ruhiy holati hamon markazda bo‘lishi kerak. Aslida uning tub-tubida insonlarni masofadan boshqarish yotadi. Umuman aytganda raqamlashtirish xavfli, lekin o‘zidan emas, balki mavjudlik ma’nosini yo‘qotishi bilan xavflidir. Bu sababdan

³ <https://www.weforum.org/agenda/archive/digital-economy/>

insoniyat aqldan ozdi, u o‘z-o‘zining nusxasini yaratmoqchi bo‘lib qilinayotgan ishlar tanazzular va ijtimoiy portlashlarga olib keladigan yo‘llardan o‘tadi. Bu o‘tish davrida inson o‘zini-o‘zi ham qutqara olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES).

1. Kastels, M. (2010). The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell.
2. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. PublicAffairs.
3. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
5. UNESCO Report (2022) – Artificial Intelligence and the Rights of People.
6. World Economic Forum (<https://www.weforum.org/agenda/archive/digital-economy/>)
7. OECD (2021) – Digital Economy Outlook.
8. Пифагор. Том 2. Мудрецы Востока. Гиперборея, 2008
9. ziyouz.uz